

GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO HUQUQIY JIHATLARI

Xalilova Mohinur A'zam qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
ommaviy axborot vositalari huquqi magistri
azamovnamohinur@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tengligini ta`minlashda jahon hamjamiyatidagi huquqiy jihatlar, xususan Islom hamkorlik tashkiloti misolida tashabbuslar, hujjatlar hamda yutuqlar muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiya, ayollar huquqlari, Ayollarni rivojlantirish tashkiloti.

KIRISH

Ayol azaldan mo‘tabar zot sifatida e’zozlanuvchi tabiatning nozik xilqatidir. Ayol bir qo‘li bilan dunyoni, bir qo‘li bilan beshikni tebratadigan, qirq jonini ishga solib, oilam, bolam, chaqam deb tinim bilmaydigan mavjudot. Ayolning baxti – jamiyat taraqqiyotining asosi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy «ko‘zgusi» – xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘scha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagи intellektual salohiyat, ma’naviyat va madaniyat, ma’rifat, qo‘yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo‘shadigan hissasi va o‘scha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi.

XX asrda inson huquqlari masalasi har bir davlatning nafaqat ichki balki tashqi siyosatida ham eng ustuvor masalalardan biri bo‘lib qoldi. Ayni shu asosdan kelib chiqib Birlashgan millatlar tashkiloti xalqaro miqyosdainson huquqlari kafolatini yaratish va unga davlatlarning og‘ishmay amal qilishini taminlash maqsadida 1948-yil 10-dekabrida inson huquqlarining xalqaro maydondagi kafolatining poydevori bo‘lmish “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ni qabul qildi va ushbu hujjat ko‘plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilindi. Keyingi yillarda esa aynan inson huquqlarini ta’minalash sohasida boshqa bir qator hujjatlar 1989-yil “Bola huquqlari

to‘g‘risidagi konvensiya”, 1966-yil “Fuqarolik va siyosiy huqlular to‘g‘risida xalqaro pakt” hamda 1979-yilda BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasi va boshqa ko‘plab hujjatlar qabul qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI:

Gender tengligi masalasida munosib ichki huquqiy tizim yaratish XXI asrning ilk o‘n yilligidan boshlab dunyo davlatlarining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Bu omillar albatta xalqaro huquqiy hujjatlardan bevosita fundamental asos sifatida foydalanishni taqozo etdi. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq subektlarining qamrov darajasiga qarab ushbu sohada fundametal asoslar yaratish uchun asosiy omil vazifasini o‘taydilar.

Ayniqsa aksariyat musulmon mamlakatlari hozirgi kungacha gendertengligi masalasida asosiy tanqidga va ko‘plab noroziliklarga uchrayotgan davlatlar qatorida turadi. 1969-yilda tashkil etilgan Xalqaro hukumatlararo Islom xamkorlik konferensiyasi (2008 yilda tashkiloti) (IXT) o‘z faoliyatining dastlabki yillarda asosiy e’tiborni a’zo davlatlar o‘rtasidagi istisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda hamkorlik masalalariga qaratgan bo‘lsa-da, biroq XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e’tiboran islom olamida inson huquqlari sohasida muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Chunonchi, 1990-yilda IHT tashqi ishlar vazirlarining Misrning Qohira shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyasida 25-moddadan iborat bo‘lgan Islomda inson huquqlari bo‘yicha Qohira deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyaning 6-moddasida alohida ta’kidlanishicha:

“Ayol erkaklar bilan inson qadr-qimmati borasida teng huquqli bo‘lib, ham huquqlar, ham majburiyatlarga ega; u mustaqil fuqarolik maqomiga va moliyaviy mustaqillikka, o‘z ismi va urug‘ini saqlash huquqiga ega.”. Deklaratsiya islom olamida ayol va erkakning qadr-qimmat borasidagi huquqlarda va majburiyatlarda o‘zaro teng ekanligini ochiq e’lon qilmoqda. Bu musulmon mamlakatlarda gender tengligi masalasiga jiddiy yondashishni yanada muhim bosqichga olib chiqdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Islom Hamkorlik Tashkiloti xalqaro hamjamiyat tanqidlardan so‘ng xalqaro mavqeyini mustahkamlash maqsadida o‘z ustavini qayta ko‘rib chiqdi va uning muqaddimasidayoq quyidagi o‘zgarishlar alohida qayd etildi. Unda alohida qayd

etilishicha: “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan. Biz, Islom Konferensiyasi Tashkilotiga a’zo davlatlarda inson huquqlari va asosiy erkinliklari, yaxshi boshqaruv, qonun ustuvorligi, demokratiya va hisobdorlikni o‘z konstitutsiyaviy va huquqiy tizimlariga muvofiq targ‘ib qilish; a’zo davlatlarning qonunlari va qonunchiligiga muvofiq, ayollarning huquqlari va ularning hayotning barcha sohalarida ishtirok etishini himoya qilish va rag‘batlantirish” ga alohida e’tibor qaratadi.

Islom olamida Ayollar huquqlari uchun kurash shu tariqa muhim ahamiyat kasb etib bordi. Bosqichma bosqich IHT ushbu masalada jiddiyroq chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

Xususan, xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash kunida (25-noyabr) IHT Bosh kotibi quyidagicha bayonot bilan chiqdi: "Bu kunning nishonlanishi barcha uchun eslatish vazifasini o‘taydi. Ayollarning maqomini oshirish zarurligini rag‘batlantiruvchi BMT Bosh Assambleyasining 1999-yil 54/134-sonli rezolyusiyasi butun xalqaro hamjamiyatga Islomda ayollar huquqlarini hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash uning eng qimmatli tamoyillarida mustahkamlash zarurligini anglatadi. Afsuski, hali hamon aksariyat jamiyatlarda, xususan, rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda, ayollarning ko‘pchiligi kamsitishlarga duch kelmoqda, ijtimoiy adolatsizlik va zo‘ravonlikdan aziyat chekmoqda."

2011-yil iyunida Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlarining Qozog‘istonning Ostona shahrida o‘tkazilgan 38-sessiyasida IHTning inson huquqlari sohasida tarmoq institutlaridan biri bo‘lgan “Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiya”ni tashkil etish to‘g‘risida rezolyusiya qabul qilindi. Uning asosiy vazifasi etib islom olamida inson huquqlari sohasida ayollar va bolalar huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish va ta’minalash belgilandi. Ayniqsa, ayollarning ta’lim olishi, ularning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish, iqtisodiy, ta’lim berish, sport, ilm fan kabi sohalarda faol ishtirokini ta’minalash, shu sohalarda o‘z o‘rinlarini egallashi uchun ularni o‘qitishga ko‘maklashish, ta’lim sohasida orqada qolayotgan musulmon mamlakatlarida xotin-qizlar va ayollarning ta’lim olishini va savodxonligi darajasini ko‘tarish uchun moliyaviy va amaliy yordam ko‘rsatish, ularni jamiyatning barcha sohalarida samarador yashash va faoliyat olib borishlarida yordamchi vazifasini bajarish ustuvor maqsad etib belgilandi. Bu tashkilotning tuzilishiga ko‘plab g‘arb ekspertlari ham ijobjiy fikr bildirdilar.

Ulardan Inson huquqlari bo‘yicha Daniya ilmiy-tadqiqot instituti izlanuvchisi Mariy J. Peterson tashkilot haqida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Eng muhimi Komissiya barcha a’zo davlatlarning o‘zaro kuchli siyosiy ko‘magi bilan tuzilgan. Ikkinchidan, yangi komissiya orqali IHTga a’zo davlatlar ichki tanqid va o‘z-o‘zini ko‘zdan kechirish uchun juda zarur forumni tashkil etishdi.

Uchinchidan, Komissiya tarkibidagi ba’zi ekspertlar inson huquqlaribo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lmasa-da, boshqa jihatdan milliy, mintaqaviy yoki xalqaro jihatdan yaxshi tajribaga ega. To‘rtinchidan, komissiya a’zo mamlakatlarni inson huquqlari bo‘yicha turli xil sohalarda qamrab olish ta’siriga ega.”

Peterson o‘z so‘zlarini davom ettirib yana quyidagilarni ta’kidlaydi: “IHT nafaqat inson huquqlari bilan shug‘ullanadi, balki IHT kontekstida tez -tez aytilganidek, ayollarning huquqlari yoki “ayollar taraqqiyoti” bilan ham shug‘ullanadi. ... Bugungi kunda IHT o‘zaro gumanitar yordam va rivojlanish, atrof-muhit va ayollar huquqlari kabi sohalarga tobora ko‘proq jalb etilmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiya esa bu jarayonning muhim qismidir.”

Fikri ojizimizcha, ayollar huquqlarini ta’minlashda yuqorida keltirilgan fikrlar o‘rinli bo‘lib, bu sohada IHT va uning maxsus institutlari tomonidan olib borilayotgan xalqaro faoliyatda ayollar va xotin qizlarning barcha sohalarda erkaklar singari teng huquqlilagini ta’minlash uchun kurash hamda uning xalqaro huquqiy asoslarini yaratish va IHTga a’zo mamlakatlar ichki huquqiy tizimiga implementatsiyasini amalga oshirishda Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissianing o‘rni beqiyosdir.

Bundan tashqari, Turkiyaning Istanbul shahrida 2016-yil 1-3-noyabr kunlari IHTga a’zo davlatlar vazirlar yig‘ilishining “Rivojlanishda ayollarning roli” mavzusida tashkil etilgan 6-sessiyasida “Ayollar farovonligini oshirish bo‘yicha Harakatlar rejasi” qabul qilindi. Harakatlar rejasingning xulosa qismida shunday deyiladi.

“So‘nggi yillarda IHTga a’zo davlatlardagi ayollarning ahvolini yaxshilashga katta e’tibor qaratildi, chunki bu masala IHTning O’n yillik Harakat dasturida muhim o‘rin tutadi, unda quyidagilar ta’kidlangan: IHTga a’zo davlatlarda iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda; ularni turli xil zo‘ravonlik va kansitilishlardan himoya qilish va ijtimoiy adolat va gender tengligining islomiy qadriyatlariga muvofiq, “Ayollarga nisbatan kansitilishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi Konvensiya qoidalariga rioya qilish ustuvor

vazifalardan hisoblanadi.”

Islom hamkorlik tashkilotining ayollar huquqlari va gender tengligini ta’minlash bo‘yicha yana bir alohida tashabbusi bilan 2021-yil 8-iyulda Misrda Islom Hamkorlik Tashkilotining Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha Vazirlar konferensiyasi “Gender tengligi va ayollarning imkoniyatlarini COVID-19 pandemiya va undan keyingi sharoitida saqlab qolish” mavzusida xalqaro darajada tajriba almashish uchun yig‘ildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ushbu yig‘ilish davomida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ayollar masalalarida muvofiqlashtirish, hamkorlik, resurslar va barqarorlik bo‘yicha ijrochi direktor o‘rnibosari Anita Bxatiya gender tengligi va ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda ichki huquqiy tizimda gender tengligining huquqiy asoslarini takomillashtirish IHTga a’zo davlatlarning asosiy ustuvor vazifalari ekaniga alohida urg‘u berdi.

2021 yil 6-7 iyul kunlari bo‘lib o‘tgan Oliy rasmiy yig‘ilishda IHTning 7 - ayollar konferensiyasi rezolyusiyalari ijrosi ko‘rib chiqildi va IHTga a’zo davlatlar va tashkilotlarning ayollarning imkoniyatlari va rivojlanishi sohasida tashabbuslari ko‘rib chiqildi va faoliyati to‘g‘risida hisobotlar berildi. IHTga a’zo davlatlarda “Ayollar farovonligini oshirish bo‘yicha Harakatlar rejasini amalga oshirish yo‘lidagi yutuqlar” mavzusidagi IHTayollar va taraqqiyot hisoboti 2021 dan olingan xulosalar ko‘rib chiqilgandan so‘ng oliy darajadagi yig‘ilish yakunida IHTning yangi “Ayollarni rivojlantirish tashkiloti” o‘z ishini boshlaganligi rasmiy ravishda e’lon qilindi.

2020-yil iyul holatiga ko‘ra ushbu tashkilotning nizomi 22 a’zo davlat tomonidan imzolangan va ularning 15 tasi rasmiy ravishda bu hujatni ratifikatsiya qilgan. Bu muhim qadam IHTning bundan keyingi faoliyatida unga a’zo davlatlarning ichki milliy huquqiy tizimi qanday bo‘lishidan qatiy o‘laroq ayollar huquqlari va gender tengligi masalasida yangicha islohotlar amalga oshirilishi lozimligini anglatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida «Gender tenglikni ta’minalash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish»ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minalash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu harakat xalqaro gender huquqi qoidalariga to`la mos bo`lib, mamlakatimizning huquqiy mavqeい yanada oshishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5325 sonli Farmoni. «Xalq so‘zi» 2018 yil 2 fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.
3. Ayol huquqlari – inson huquqlari» ma’rifiy dastur. «Mehri» ayollar jamiyatি.
– T.: Sharq. 2012 yil
4. X.Odilqoriev. «Konstitutsiya va fuqarolik jamiyatি». - T.:Sharq, 2012 yil.
5. O.Safarov, M.Mahmudov. «Oila ma’naviyati». – T.: Ma’naviyat.2018 yil.
6. »HUQUQ va BURCH» ijtimoiy-huquqiy jurnalı. №8-9-son., 2017 yil.
7. «Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili» mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. 26 fevral 2019 yil.